

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH
FANLARINING MAZMUNI VA BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINING
BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI**

Boymatova Go'zalxon Bohodirovna

*Farg'onasi viloyati Furqat tumani 22-umumiy o'rta ta'lif maktabining
boshlanguich ta'lif fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlanguich sinflarda ona tili o'qitish fanlarining mazmuni va boshlanguich ta'lif tizimining bugungi kundagi ahamiyati xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlanguich ta'lif, ona tili, dars mazmuni, maqsad, vazifa, gap, ohang, nutq, so'z va nutq ravonligi, o'qish texnikasi.

Аннотация: эта статья дает представление о содержании предметов обучения родному языку в начальных классах и текущей важности системы начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, содержание урока, цель, задание, речь, тон, речь, беглость речи и речи, техника чтения.

Annotation: this article provides insights into the content of mother tongue teaching subjects in the primary grades and the current importance of the primary education system.

Key words: primary education, mother tongue, lesson content, purpose, task, speech, tone, speech, fluency of speech and speech, reading technique.

Mustaqillik yillarida ta'lif-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Dunyoning barcha rivojlanayotgan davlatlari (hatto bir qator rivojlangan davlatlar ham) XXI asrda o'z oldiga hamma bolalarni umumiy o'rta ta'lif jarayoniga to'liq qamrab olish masalasini qo'ygan bir vaqtda, mustaqil

O‘zbekistonimizda ushbu muammo allaqachon muvaffaqiyatli hal etilgan bo‘lib, navbatdagi ustuvor vazifa sifatida sifatli ta’lim-tarbiya berish, ta’limning samaradorligini oshirish masalasi qo‘yilmoqda. Zero mamlakatimizda bolalarning umumiy o‘rta ta’lim bilan qamrab olish darajasi jahonda yuqori ko‘rsatgichni 99,7% ni tashkil etadi. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur’atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni talab etmoqda. Bu o‘z o‘rnida har bir tizim xodimi, ayniqsa, o‘qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas’uliyat va vazifalarni yuklaydi. Negaki, rad qilib bo‘lmaydigan bir haqiqat bor — qilingan barcha sa’y-harakatlar oxir-oqibat o‘qituvchi mehnati orqali o‘z natijasini o‘quvchilarning yaxshi bilimi va xush axloqida namoyon etadi. Shunday ekan, pedagoglardan vijdonan mehnat qilish, yorug‘ kelajagimiz oldidagi mas’uliyatlilik, ko‘rsatilayotgan yuksak e’tiborga munosib javob berish talab etiladi.

Boshlangich ta’lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olishi salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarshi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga jismonan sog’lom bo‘lishga moddiy borliq go‘zalliklarni xis eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi. Boshlang’ich ta’lim bosqichi oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta’lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta’lim standarti asosida davlat boshlang’ich sinf o‘quvchilaridan standartda belgilab qo‘yilgan ko‘rsatkichlarga erishishni talab qiladi va o‘z navbatida bu ko‘rsatkichlarga erishish uchun zarur bo‘lgan ta’limiy xizmatlar va vositalar bilan ta’minlaydi.

Ayniqsa boshlang’ich sinflarda Ona tili ta’limi bolalarining tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o’zgalar fikrini aniqlashi, o‘z fikrini og’zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo’la olish ko’nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tili ta’limda yozuv fani emas. Balki butun jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta’lim standarti ko’satgichlari bolaning fikrlay olishga, ifodalangan fikrni anglashga va o’z fikrini savodli, mantiqiy izchillika rioya qilingan holda bayon qila olishga o’rgatish nuqtai nazaridan belgilaydi. Bo’shlang’ich ta’lim bosqichida o’quvchilarning ona tili ta’lim sohasi bo’yicha tayyorgarlik darajasiga qo’yiladigan minimal talablar quyidagi uch parametr standart o’lchovi orqali aks ettiriladi.

- O’qish texnikasi.
- O’zgalar fikrini va matn mazmunini anglash.
- Fikrini yozma shaklda bayon etish malakasi.

Bo’shlang’ich sinflarda o’quvchilar ona tili o’qish bo’yicha quyidagi bilim, ko’nikma va malakalarni egallashi shart.

1. O’qish texnikasi bo’yicha: Miqdoriy ko’rsatkich, bir daqiqada 80-90 so’zni o’qiy olish.
2. Talablar: harflarni to’gri talaffuz etish; so’zlarni to’g’ri o’qish; gap ohangiga ryoja qilgan holda ravon va obrazli o’qish; gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish; sanash va ajralish ohanglaridan to’g’ri foydalanish; so’z urug’ulariga ryoja qilish; ohangga ryoja qilish; ilmiy atama va ramzlarni to’g’ri talafuz etish.[3]

Boshlang’ich sinflarda ona tili o’rgatishdan asosiy maqsad bolalarning yosh xususiyatlari va yozma nutqini, tafakkurini amalga oshirish, ularni shaxs sifatida shakllantira borishni amalga oshirish, ularda bilim olishga qiziqishni oshirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchaliklarni yenga olish qobiliyatlarini o’stirish hisoblanadi. Bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli o’stirish kelgusida fanlarni puxta o’zlashtirishlariga imkoniyat yaratadi. Boshlang’ich ta’limda ona tili ta’limi mazmunining negizi quyidagilarni o’z ichiga oladi.

- Gap va nutq, nutq tovushlari, ona tilining fonetik tizimi (fonetik tahlil, unli va undosh tovushlar, jarangli va jarangsiz undoshlar);
- bo’g’in va bo’g’in tuzilishi, so’zlarni bo’g’inlab ko’chirish;
- so’z va so’z ma’nolari (lug’aviy tahlil – bir ma’noli so’zlar);

- so'z tarkibi o'zak va qo'shimchalar (turlovchi va yasovchi) o'zaklarda tovush o'zgarishi , bir necha shakldagi qo'shimchalar (o'zak va qo'shimchalar imlosi);

- so'z – nomlarini mazmuniga ko'ra guruhlash predmetlar nomini bildiruvchi so'zlar predmetlarning harakatini, belgisini, sanog'ini bildiruvchi so'zlar, predmetga ishorani ifodalovchi so'zlar (shaxsga nisbatan-kishilik olmoshi);

- gap, gapning fikr bildirish maqsadiga ko'ra turlash (darak, so'roq, buyruq va his-hayajonni bildirgan gaplar) gapda tinish belgilarining ishlatalishi, nuqta, so'roq, undov) yozma nutqda ishlataladigan muhim belgilar vergul, qavs, ikki nuqta, ko'p nuqta.

- gapning tuzilishi, gapning asosiy mazmunini bildiruvchi bosh bo'laklar ega va kesim asosiy mazmunini to'ldiruvchi bo'laklar (ikkinchi darajali bo'laklar – ularning turi va nomlaridan mustasno);

- gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi, so'zlar birikmasi, (gapning uyushiq bo'laklari, ularning o'zaro bog'lanishi);

- gap va matn, matnning tuzilishi; mavzu, voqeal tafsiloti, asosiy fikr bayoni, xulosa chiqarish, reja tuzish, sarlavha, xat boshi, dialog, monolog gaplar; bayon, kichik insho, og'zaki, yozma ijodiyot;

- xabar, xat, maqola, tabriknoma, taklifnomma, e'lon, yozish, ro'yxat tuzish;

- kitob bilan ishslash;

- so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, bo'g'inlab o'qishdan ongli, sidirg'asiga, tez, to'g'ri, ravon, ifodali o'qishga erishish;

- kichik hajmda she'rni yod olish;

- 2-3 sinflarda yozuvchilarning ism-sharifi, asarlarining nomlari haqida to'laroq tushuncha hosil qilish;

- badiiy asarlarni sharhli, ijodiy va ifodali o'qish

- asar syujet voqealari o'rtasidagi bog'lanishni, qahramonlarning fe'l-atvorini aniqlash, qiyosiy tavsiflash;

- o'qigan asarlarni yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini og'zaki va yozma tarzda izchil ifodalash

- so'z boyligini oshira borish
- 4-sinfda o'qigan asarlari yuzasidan mustaqil reja tuzish;
- o'qigan asarlari yuzasidan savol topshiriqlar tuzish;
- badiiy asarlarni o'zaro qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish.[2]

Ta'lif-tarbiyaning sifati, samaradorligi birinchi navbatda sifatli ta'limga bog'liq. Sifatli ta'lif esa xalqona tilda aytganda yaxshi muallimga, o'qituvchi va tarbiyachiga bog'liq. Maktabda ta'lif olayotgan har bir bola iqtidorini, individual imkoniyatlarini va boshqa qator shaxsiy sifatlarini batafsil o'rghanmay, tahlil qilmay turib mazkur o'quvchi kelajagini pedagogik jihatdan to'g'ri baholab bo'lmaydi. Zero, "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ygan hozirgi kunda O'zbekistonda barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilmfan va ta'liftarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq."[1]

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2019
2. Boshlang'ich ta'lif bo'yicha yangi taxrirdagi DTS, dasturining maqsad va vazifalari. <https://hozir.org/talimni-maqsadi.html>
3. Murodova Surayyo. Yaxshi muallim sifatli ta'lif" <http://btr2014.zn.uz/oqituvchilarga-2/metodik-tavsiyalar/yaxshi-muallim-sifatli-talim/>